



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.1 № 1

2024

**“IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA
ILMIY-INNOVATSIIION TADQIQOTLAR”**
ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanəzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboyevich — Psixologiya fanlari doktori, professor

- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husnidin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birgalikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 - Tarix.....	5
OBRAZOVANIE KARAKALPAKSKOY AVTONOMNOY OBLASTI: STRANICY ISTORIYI.....	5
Джумашев Аскар Мамбетович.....	5
07.00.00 - Tarix.....	10
O`RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR.....	10
Abdullaev Ulug`bek Saydanovich.....	10
Shamshiddinov Baxriddin Sharobiddin o`g`li.....	10
09.00.00 - Falsafa.....	15
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.....	15
Qabulniyazova Gulchexra.....	15
09.00.00 - Falsafa.....	21
ISLOM FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNI OLIB BORISHGA DOIR QARASHLARING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	21
Siddiqov Ilyosjon Baxromovich.....	21
13.00.00 - Pedagogika.....	33
RASSMOTRENY TEORETICHESKIE OSNOVY PODGOTOVKI STUDENTOV SPEЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	33
Мухаммадиев Комил Бурхонович.....	33
13.00.00 - Pedagogika.....	49
SO`ROVNOMAGA ASOSLANGAN TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	49
Isakulova Nilufar Janikulovna.....	49
10.00.00 - Filologiya.....	57
SHE`RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK.....	57
Soatova Nodira Isomitdinovna.....	57
10.00.00 - Filologiya.....	65
DETEKTIV QISSA YARATISHDA USLUBIY O`ZIGA XOSLIK.....	65
Turoпова Parizod Shavkat qizi.....	65
10.00.00 - Filologiya.....	71
XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN.....	71
Iqboloy Adizova Istamovna.....	71
19.00.00 - Psixologiya.....	82
O`SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	82
O`tamurodov Samandar G`ulom o`g`li.....	82
19.00.00 - Psixologiya.....	87
OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLALARDA MILLIY FAZILATLARNI SHAKLLANISHIGA TA`SIRI.....	87
Norbekova Barno Shavkatovna.....	87

19.00.00 - Psixologiya.....	92
SPORT PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING MUAMMOLARI: KONTENT TAHLILI.....	92
Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li.....	92

09.00.00 - Falsafa

**ISLOM FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNI OLIB BORISHGA DOIR
QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI**

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich

*Falsafa va milliy g'oya kafedراسi mudiri,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor*

Annotatsiya. Maqolada islom falsafasining epistemologik mohiyati, unda intellektual faoliyat bilan shug'ullanishga qo'yiladigan talablar, mezonlar, intellektual qadriyatlar tizimi, islom dinida ilm olishga munosabat, jamiyat taraqqiyotida ziyoli qatlamning o'rni, ilm va amal uyg'unligini ta'minlash, zamonaviy dunyoda intellektual tolerantlik muhitini o'rta asrlar islom falsafasida ilgari surilgan g'oyalar asosida shakllantirish zaruriyati kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: islom dini, islom falsafasi, epistemologiya, genoseologik muammo, bilim, amal, intellekt, intellektual faoliyat, intellektual qadriyatlar, mezon.

**HISTORICAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF VIEWS ON THE CONDUCT OF
GNOSEOLOGICAL ACTIVITIES IN ISLAMIC PHILOSOPHY**

Siddikov Ilyosjon Bahromovich

*Ferghana State University
Department of Philosophy and National Thought,
Doctor of Philosophy (DSc), Professor*

Abstract. The article analyzes such allegories as the epistemological essence of Islamic philosophy, the requirements for engaging in intellectual activity, criteria, the system of intellectual values, the attitude to obtaining Science in Islam, the role of an intellectual layer in the development of society, the need to ensure the harmony of Science and practice, the formation of an environment of intellectual tolerance.

Keywords: Islam, Islamic philosophy, epistemology, genoseological problem, knowledge, practice, intellect, intellectual activity, intellectual values, criterion.

**ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА ПРОВЕДЕНИЕ
ГНОСЕОЛОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

Сиддиков Илёсджон Бахромович

*Ферганский государственный университет
Заведующий кафедрой философии и национальной идеи,
доктор философских наук, профессор*

Аннотация. В статье анализируются такие аллегории, как эпистемологическая сущность исламской философии, требования к занятию интеллектуальной деятельностью, критерии, система интеллектуальных ценностей, отношение к получению научных знаний в исламе, роль интеллектуальной прослойки в развитии общества, необходимость обеспечения гармонии науки и образования. практика, формирование среды интеллектуальной толерантности.

Ключевые слова: ислам, исламская философия, эпистемология, геносеологическая проблема, знание, практика, интеллект, интеллектуальная деятельность, интеллектуальные ценности, критерий.

INTRODUCTION

Jahon sharqshunosligida islom dini va ta'limoti, falsafasi bir qadar keng o'rganilgan bo'lsada, islomda ilmiy va intellektual faoliyatning yuzaga kelishi, rivojlanishi va o'zining yuksak darajasiga chiqishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, mezonlar yetarlicha tadqiq etilmaganligi ma'lum bo'lmoqda. Xalqaro ilmiy doiralarda o'rta asrlar islom ta'limotlarini tizimlashtirish, undagi vorisiylik an'alarini avloddan-avlodga o'tishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlashga doir izlanishlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Shu bois dunyoning ko'plab nuqtalarida islom dini va ta'limotlarini o'rganishga qaratilgan markazlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Birmingem shahrida "Islom va O'rta Sharq tadqiqotlari markazi" tashkil etilgan va uning "Falsafa, dinshunoslik va din bo'limi" faoliyati ko'rsatmoqda[1]. Bunday markazlar faoliyatini kengaytirish orqali o'rta asrlar islom madaniy merosiga yangicha yonshish va zamonaviy tadqiqotlarni tizimlashtirish asosida xulosalar chiqarish dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham «islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish»[2]ga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Bu orqali islom dini va ta'limotlarining «ezgulik bilan tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat»[3] etishi, islomda ilm olish, diniy va dunyoviy ilmlarni birday o'rganish, umuman, ilmiy-intellektual faoliyat bilan shug'ullanish erkinligi hamda o'rta asrlar islom olami allomalari, xususan «Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasi»[3] ni yangicha qarashlar va mezonlar asosida tizimlashtirish maqsad qilinmoqda. Bunday sharoitda islom ta'limotlarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish mezonlarini tadqiq etish, ilm olishga, diniy va dunyoviy ilmlarni o'rganishga bo'lgan munosabat, aqidalarning shakllanishi jarayonini falsafa tarixi nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

MATERIALS AND METHODS

Jahonda islom falsafasida intellektual faoliyatga munosabat, uning rivojlanish tendensiyalari, mezonlari va unga ta'sir ko'rsatgan omillar, uning Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri rivojidadagi o'rniga oid tadqiqotlar tahlili quyidagi natijalarda namoyon bo'lmoqda: O'tgan asrning oxirlarida olib borilgan so'ngi tadqiqotlardan biri "Abbosiyar davridagi arab adabiyoti, dini, ta'limi va fanining Kembrij tarixi"[4] va ayniqsa, "Arab fanlari tarixi bo'yicha ensiklopediya"[5] kitoblarini muhim tadqiqotlar sirasiga kiritish mumkin. Shu bilan birga, shveysariyalik mashhur olim Genrix Zuterning "Arab matematiklari va astronomlari hamda ularning asarlari"[6] nomli kitobida 750 yildan 1600 yilgacha yashab o'tgan 528 nafar musulmon matematik va astronomlarining qisqacha hayoti, asarlari va ba'zilarining qo'lyozmalari saqlangan makon haqida ma'lumotlar beriladi. 1932 yili fransiyalik olim J.Reno "Zuterning arab matematik va astronomlari kitobiga qo'shimcha va tuzatishlar"[7] risolasi, germaniyalik Maks Kruzening "Istanbuldagi musulmon matematikasiga doir qo'lyozmalar"[8] ga oid tadqiqotlar ham islom ilm-fani rivoji an'alariga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Mashhur sharqshunos Adam Mes o'zining "Musulmon renessansi"[9] asarida IX-X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishni tadqiq etgan. Shuningdek, avstraliyalik tadqiqotchi Gustav fon Gryunebaumning 1970 yili Londonda nashr etilgan "Klassik islom"[10] kitobi, "Zamonaviy islom: madaniy o'zlikni anglash bo'yicha tadqiqotlar"[11] va "Musulmon sivilizatsiyasida umumiylik va har-xillik"[12] kabi to'plamlarida o'rta asrlar islom ilmiy rivojlanishi mezonlari tizimlashtirilgan.

Amerikalik sharqshunos Jorj Sartoning "Fan tarixiga kirish"[13] nomli fundamental tadqiqoti, Maks Meyerxofning "Fan va tabobati"[14] nomli maqolasida o'rta asr Sharq xalqlari fani va tabobati, eronlik Sayyid Nasrning "Musulmon fani va sivilizatsiyasi" kitobi, ingliz olimi Donald Xill IX asr poytaxt – Bag'dodda fan va texnikada yuz bergan muhim

jarayonlar[15], italiyalik sharqshunos Karlo Nallino o'zining o'rta asr falakkiyot ilmi tarixiga bag'ishlab Qohira universitetida o'qigan ma'ruzalari[16] ham qimmatli tadqiqotlar hisoblanadi.

Shuningdek, Imom Ahmad ibn Qudoma Maqsudiyning "Minhojul qosidin muxtasari: Saodat izlovchilarga qo'llanma"[17], Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qaymoz ibn Abdulloh Zahabiyning "Mashhur daholar siyrati"[18], Honiy al-Hajning "Solihlar gulshani"[19], Doktor Rog'ib Sarjoniyning "Islom va olam"[20], Abulhasan Movardiyning "Dunyo va din odobi"[21], Mahmud As'ad Jo'shonning "Payg'ambar alayhissalom merosxo'rlari"[22] hamda "Islom va axloq"[23], Muhammad Zako Ko'nrapaning "Muhammad va islom tarixi"[24], Abdurahmon Raf'at Poshoning "Tobe'inlar hayoti"[25], Shayx Muhammad Mutavvali Sha'roviyning "Allohning borligiga aqliy dalillar"[26], Yo'ldosh Eshbekning "Buyuk Imom Abu Hanifa"[27], Imom Zarnujiyning "Ilm olish sirlari"[28], falastinlik tarixchi olim Jihod At-Turboniyning "Islom ummatining 100 buyuk shaxsi"[29] to'plami, 2019 yilda nashr etilgan "Avliyolar sultoni"[30] to'plamlarini ham muhim manba sifatida ko'rish mumkin.

Islomiy ma'rifatni rivojlantirish faoliyatiga o'zining beqiyos ulushini qo'shgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning bir necha asarlarida ham islom dunyosining ilmiy faoliyati rivoji, o'rta asrlarda islom madaniyatini shakllanishi va taraqqiy etish jarayonlari tahlil qilingan. Xususan, uning "Olam va odam, din va ilm"[31] nomli kitobida islom ilmiy va aqiydaviy rivojlanish tendensiyalari, aqid ilmining mazmun mohiyati, umuman olganda, islomda ilm tushunchasiva intellektual faoliyat mezonlarini yoritib berilgan.

RESULTS AND DISCUSSION

Arab xalifaligining har tamonlama qudrati oshib borishi bilan islom dini tarqalgan hududlarning jadal kengayishi, musulmonlarning boshqa din va madaniyatlar bilan yuzlashishi natijasida yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi vaziyatni o'zgartirib yubordi. Yangi sharoitlarda yuzaga kelgan masalalar yechimi uchun Qur'on va hadislardagi dalillar bilan bir qatorda aqliy dalillarga oldingidan ham ko'proq ehtiyoj sezila boshladi[32]. Natijada islom dunyosida ratsional fikrlash va dalillarga asoslanish, ilm izlash va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish an'analari shakllana boshladi.

O'rta asrlar islom olamidagi intellektual faoliyat ham o'zining mustahkam epistimologik asosi orqali rivojlanib borgan. Ya'ni, bu davrda islom mafkurasi asosida shakllangan epistema ilmiy faoliyat uchun barqarorlikni ta'minlab bergan. Ishonch orqali islom falsafasi yanada mustahkamlanib, islom ilmiy doirasida hamjihatlik va birdamlikda yaratgan bo'lsa, aql orqali uning mohiyati yanada sodda, aniq, tushunarli bo'lib borgan. Islom ta'limotlari ham dunyo ishlarini shu aql yo'rig'i va tadbiriga binoan boshqarishga yo'l ko'rsatadi, maqsad va qiziqishlari har xil bo'lishiga qaramay, qilinadigan ishlarni ikki qismga ajratadi. Birinchisi, aqlga binoan qilish vojib bo'lgan qismni shariat quvvatlaydi. Ikkinchisi, aqlga binoan qilish joiz bo'lgan qismi shariat tasdiqlaydi. Aql ana shu ikki qismga ustun va tayanch vazifasini bajaradi. Zero, mutaallim, ya'ni ilm o'rganuvchi avval o'z nafsini razil axloqlar va jirkanch sifatlardan poklamog'i lozim, zotan ilm qalbning ibodatidir[33]. Chunki, ilm o'rganuvchi o'zini ilmdan chalg'itadigan barcha aloqalardan uzmog'i kerak. Zero, fikr boshqa narsalarga bo'linsa, haqiqatlarni idrok etishdan o'jiz bo'ladi.

Musulmon madaniyatida bilimga bo'lgan munosabat Yunon-Rim falsafasidagidan farqli o'laroq aniq bir maqsadga yo'naltirilganligi, sobitqadamligi bilan ajralib turar edi. F. Rouzentalning ta'kidlashicha: "islomgacha arablar madaniyatida shakllangan bilim konsepsiyasining mazmuni dinga nisbatan shubhalardan xolis edi va yangi diniy (ya'ni islomiy) harakatda muhim ahamiyat kasb etishga tayyor bo'lgan"[34]. Islom madaniyatida musulmon ilohiyotchilari "bilim" tushunchasiga to'g'ri keluvchi ta'rif izlash ishiga katta xissa qo'shganlar. Har bir ilohiyotga doir kitob "ilm" ta'rifini muhokama etuvchi "Bilim kitobi" deb nomlangan qismga ega bo'lgan. Misol uchun, Abu Lays Samarqandiyning

“Tanbehul g‘ofilin” kitobida keltirilishicha, “ilmni ta’lim olinglar, chunki ta’lim olish allohdan qo‘rqish, uni talab qilish ibodat, muzokarasi tasbeh, bilmagan kishiga o‘rgatish sadaqa, uni ahliga sarflash qurbatdir. Chunki ilm jannat ahillarining manzillari sari yo‘ldir. Hasan Basriy fikricha, ilm olish Alloh yo‘lida jihod qilishdan afzaldir”[35]. Mana shunday shaklda boshlangna asarlar, islom kitob yozish an‘anasida mustahkam o‘rin egallab kelgan. Ilmga munosabat bildirish, uning fazilatlarini tushuntirish, islomiy ilmlarni o‘rganish farzini singdirish islom kitobat san‘atining muhim bir vazimfalaridan bo‘lgan.

Zamondoshimiz eronlik islom faylasufi Muhammad Xotamiy o‘zining “Islom tafakkuri tarixidan” asarida islom ilmiy va intellektual faoliyati rivoji o‘z tarkibiga besh yo‘nalishni qamrab olishini bayon qiladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar. Bularga u quyidagicha ta’rif beradi: “Amalda musulmon jamiyatining ratsional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to‘rtta yo‘nalishni ko‘rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg‘unlik munosabatlarini oliy darajada qo‘ygan oqim.

2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko‘radigan oqim.

3. Aql va falsafaning qo‘li qisqa, oyog‘i cho‘loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, deb hisoblovchi irfon va tasavvuf oqimi. Sufiylar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deydilar va “dalil keltirib isbotlovchilarning oyog‘i yog‘ochdandir”, ular haqqa yetishishga ojiz deb hisoblaganlar. Tasavvuf nafsni axloqiy jihatdan taraqqiy ettiradigan hayotiy falsafa bo‘lib, u muayyan amaliy riyozat vositasida haqiqatga aylanadi va ba’zi vaqtlarda oliy haqiqatga singish hissiga olib boradi. Shuningdek, undan zavq va aql ila ma’rifat hosi qilishga olib boradi[36]. Shayx hazratlari tasavvufni ikkiga – Sunniy tasavvuf va falsafasiy tasavvufga ajratadi. Falsafasiy tasavvufni barcha – tasavvufga qarshilar ham, ahli tasavvufning o‘zlari ham qoralaydilar va inkor qiladilar. Ammo Qur’on va Sunnatga asoslangan sunniy tasavvufni hamma qo‘llaydi. Falsafasiy tasavvuf keyinchalik paydo bo‘lib, turli falsafalar ta’siri ostida Islomga begona bo‘lgan fikr va e’tiqodlarni olg‘a surgan. Bunday tasavvufning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari Muhyiddin ibn Arabiy, Mansur Xalloy va boshqalar bo‘lib, ular vahdatul vujud, hulul va ittihodlarga sabab bo‘lganlar.

4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta’kidlovchi oqim”[37]. O‘sha davrda qaramatiy, qadariy, jahamiy, jabariy, xorijiy va mo‘taziliy kabi bid’atchi firqalar paydo bo‘lgan va ular o‘rtasidagi aqidaviy tortishuvlar qonli mojarolarga olib kelgan. Ulamolam o‘rtasida avj olgan bahsu munozaralar sunnat ahli imonini susaytira boshladi. Ana shunday bir vaziyatda, “ahli sunnat val jamoat” aqidalarini bir-biriga zid bo‘lgan xilma-xil bid’atchi firqalardan muhofaza qilish maqsadida Kalom ilmi vujudga keldi. Botil aqidali bid’atchi firqalar ko‘paygach, kalom ilmi fiqh ilmidan ajralib chiqib, tafsir va hadis ilmlari kabi asosiy ilmlardan biriga aylandi”[38]. Demak, islom aqidalarini inson aqlidan, uning bilish imkoniyatlaridan ustun deb biluvchilar ham shakllandi.

Islom dunyosida yuzaga kelgan ilmiy va intellektual faoliyat o‘ziga xos fenomen bo‘lib, muammolar doirasini taqdim etishda o‘z usuli hamda masalalarini hal etishning chegaralari va to‘g‘riligiga asoslanib, ularni o‘rtaga qo‘yishning mumkin bo‘lgan o‘ziga xos mezonlari borligi bilan tavsiflanadi. Bunda asosan musulmon falsafasining barcha yo‘nalishlari uchun umumiy bo‘lgan va undagi munozaralar mavzusi bo‘lib hisoblangan muammolar majmui shakllandi. U o‘z ichiga metafizika (ilk, boshlang‘ich asos va uning ko‘p dunyolarga munosabati, mavjudlik-nomavjudlik moduslari va ular o‘rtasidagi munosabat, sabablilik), bilish nazariyasi (bilish shakllari, hissiy, aqliy va intuitiv bilish), inson haqidagi ta’limot (inson harakat va bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjudot sifatida, insonning dunyo

va ilk negizga (boshlang'ich asosga) amaliy-bilish tarzidagi munosabati) va h.k. masalalarni qamrab oladi. Ushbu muammolar doirasidan kelib chiqib, islom falsafasida bu davrlarda faoliyat yuritgan besh asosiy yo'nalish va maktab: kalom, peripatetizmga asoslangan musulmon falsafasi, tasavvuf, ismoiliylik, ishroqiylik falsafiy ta'limotlarini sanab o'tish mumkin"[39]. Ularning izlanishlari va harakatlari bila go'zal islom ilmi yuzaga keldi va ilmiy an'analar shakllandi, intellektual faoliyatda esa arab-musulmon metodologiyasi yaratildi.

Abdurauf Fitrat o'zining "Najot yo'li" asarida bu hususda quyidagicha fikr bildirgan: hijriy 100 yilgacha mo'taziliylar nazariyasi mantiqiy isbot va muammolarni atroflicha tushuntirishlarga tayangan, ya'ni ular aqlni ishga soldilar. Keyinchalik hijriy 300 yilga kelib shayx Abulhasan Ash'ariy sunnat aqidlarini mudofaa va muhofaza qilish uchun kalom ilmiga asos soldi va uni ilmiy muomalaga kiritdi. Keyingi islom ulamolari kalom ilmiga Yunon falsafasi usul va tushunchalarini kiritdilar. Aynan shu jihatiga ko'ra kalom ilmi keyinchalik bahstlab bo'lib qoldi[40]. Darhaqiqat, kalomchilar va mo'taziliylar baxsi bir tomondan aniqlik va asllilik bahsi bo'lsa, boshqa tomondan mukammalik talab etuvchilar bahsiga aylandi. Ya'ni, ular o'rtasdagi o'zaro kurashlar islom ilmiy va intellektual faoliyatini rivojlantiradi.

Musulmon madaniyatida peripatetizmga asoslangan falsafaning paydo bo'lishi tufayli shariat va falsafa hamda tasavvuf va falsafa orasida kuchli ziddiyat vujudga keladi. Tasavvufning falsafaga qarshi kurashi tasavvuf doirasida "nazariy irfonning" va Ibn al-Arabiyning buyuk diniy-falsafiy ta'limotining yaratilishiga olib keldi. Demak shuni ta'kidlash lozimki, ilk musulmon madaniyatida ilmiy va intellektual faoliyat "sof" falsafa fanining vujudga kelishidan avval ham o'ziga xos shaklda mavjud bo'lgan. Lekin shariat ahli va tasavvufning falsafa bilan bo'lgan to'qnashuvlari natijasida ham shariat, ham tasavvuf sohalaridagi intellektual faoliyat yangi, balandroq mavqega ko'tariladi. Mustamliy Buxoriyning nazarida, tasavvuf shunchaki so'fiylar hayoti va faoliyatiga aloqador turli tushunchalar yig'indisi emas, balki, har biri o'zining muayyan vazifasiga ega bo'lgan bir-biriga o'zaro bog'liq hodisalarning yagona maqsad, aniq tuzilish, chegara va bosqichlari bo'lgan markazlashgan tizimdan iboratdir[41]. Fikrimizcha ham, tasavvuf o'zining mukammal prinsiplariga ega bo'lgan qat'iy normalar va yo'llar majmuasi hisoblanadi.

Ibn Xaldunning: «Kalom bor-yo'g'i bid'atlarga raddiya sifatida paydo bo'lgan. U shunday ilmki, mantiqiy dalillarga asoslangan bahs yuritish orqali din asoslarini himoya qiladi va islomiyatdan adashgan bid'atchilarni qoralaydi» deb bergan ta'rifi kalomning ash'ariy va moturidiylardan boshlangan ana shu – kalom ilmi taraqqiyotining yangi bosqichiga tegishli ekanligini unutmaslik kerak. Shuni eslatib o'tish joizki, islomning ilmiy va ma'rifiy doiralarida shariat haqidagi ilm dastlabki shakllangan shahobcha bo'lsa, hadisshunoslik, tarix, adabiyot, ko'p hollarda, shariat va fiqhga ilova edi[42]. Bu fikr "islom ensiklopediyasi"da quyidagicha dalillanadi: "shaytonlar o'z vasvasasi ila bid'atchilarga sunnatga xilof ishlarni ilqo qildi. Ular o'sha ishlarni gapirdilar va ahli haqning aqidasi buzmoqchi bo'ldilar. Bas, Alloh bir toifa mutakkalimlarni paydo qildi vaularning himmatini tartibga solingan kalom ila sunatning nusrati yo'lida harakatga soldi. Shu orqali ahli bid'atning sunnatga xilof ravishda chiqargan aldamchiliklari fosh qilindi"[43]. Shunday ekan, islom ta'limotlarining ratsional faoliyat bilan uyg'unlashuvi, intellektual qadriyatlarining qadrlanishi bilan uning sayqallanishi, takomillashuvi jarayoni ham tezlashib bordi. Bu esa islom falsafasining ta'sirida Sharq Renesansini yuzaga kelishiga olib keldi.

O'rta asrlar islom falsafiy fikri asosini keyinchalik vujudga kelgan aqlga, shaxsiy fikrga tayanish, mustaqil fikr yuritish, mantiq va intellektual faoliyat yotadi va uning asosiy manbasi yangicha anglangan va talqin etilgan Qadimgi Yunon falsafasi asosida shakllandi. Faylasuflar, ayniqsa Abu Nasr Forobiy falsafiy tizimida, din va falsafa, bilim va imon uyg'unligini, sintezini yaratishga intilganlar. Aslida, bu masala yuzasidan Sharq (ayniqsa arab

mamlakatlari) va G'arb sharqshunos va faylasuflari ko'p munozaralar olib borganlar. Ular turli pozitsiyada turganlariga qaramasdan, musulmon falsafasi "imom va aqlni kelishtirish" (O. Amin), "imom va aqlni yarashtirish"ga (A. Arberi) harakat qilgan yoki "diniy dunyoqarash strukturasi kelib chiqqan holda, borliqning ratsional suratini yaratishga intilgan" (M. Faxri), degan deyarli bir hil xulosaga kelganlar. Bu jarayon keyinchalik o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ham kuzatiladi. Shunday qilib, asosini islom dini tashkil etgan jamiyatda shakllangan falsafa yoxud musulmon falsafasi tarkibiga barcha u yoki bu darajada ratsionalizmga tayangan ilmlarni kiritish mumkin. Demak musulmon falsafasi asosini kalom, falsafa va tasavvufni kiritish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Zero, "Islom ilohiyotiga doir adabiyotlarning tahlili islomning tugallangan diniy tizim sifatidagi shakllanishi jarayoni Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Kavkaz orti hududlari istilo qilinganidan so'ng amalga oshadi. IX-XI asrlarda Qur'onning talqini, hadislarni to'plash, shariat qonunlarini ishlab chiqish jarayonlari shaharlarda amalga oshiriladi (Eron - Xamadon, Nishopur, Mashhad, Afg'onistonda - Balx, Hirot, O'rta Osiyoda - Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv kabi shaharlarda)"[44]. Shu bilan birga "Islomga kirgan yangi mintaqalarda, jumladan Movarounnahrda ilohiyot bilan bog'liq masalalar keskin tus oldi. Chunki mazkur hududdagi turk yoki sug'diy elatlar islom ahkomi va talablariga rioya qilishga tayyor emas edi. Bu esa, oxir oqibatda, bir qator isyonlarga ham olib keldi. Bular Movarounnahrda mustaqil ilohiyot an'alarining vujudga kelishi uchun zaminni tayyorladi"[45]. Markaziy Osiyolik mutafakkir va allomalar musulmon falsafasini yaratishda faol qatnashdilar va unga katta xissa qo'shdilar. Ismoil Buxoriy va at-Termiziylar mashhur hadis to'plamlarini yaratib, o'z davrining eng nufuzli hadisshunos hisoblanganlar, Burhoniddin Marg'inoniy mashhur shariat kitobi "Hidoya"ni yaratdi va Abu Lays Samarqandiy bilan bir qatorda obro'li mufaqih bo'lganlar, az-Zamaxshariy va al-Moturidiylar kalom ilmining buyuk namoyandalari bo'lganlar, Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar falsafa va fan rivojiga qo'shgan xissalari beqiyosdir. Bu ma'lumotlar mamlakatimizda barchaga va musulmon madaniyatini tadqiq etuvchi chet mamlakatlar olimlariga ma'lum, buning ustiga ular musulmon mutafakkirlar o'z tadqiqotlarida ko'rilayotgan masalalarga chuqur kirib borganligi va qarashlarining kengligidan hayratlanadilar.

Abu Mansur Moturidiyning kalom falsafasida o'ziga xos metodologiya bor edi. "U o'zi so'z yuritayotgan masalalarni asoslab berishga intiladi, imkon bor yerda, bir fikrni ikkinchisidan keltirib chiqarishga harakat qiladi. Bu ishni uning Movarounnahrda bironta o'tmishdoshi qilmagan edi. Bunda uning o'zi uchun ham shu paytga qadar qo'llanilmagan yangi usuldan foydalangani qo'l kelgan. U aniq tarkibga ega bo'lgan epistemologiya, ya'ni bilish nazariyasiga ega ediki, uning yordamida olim o'z fikrlarini tahlil etar hamda bilishning turli manbalarini anglab, ular haqida so'z yuritadi"[46]. U kalomchilikda o'ziga xos sodda va tushunarli usulni yaratishga harakat qiladi. Uning maqsadi baxslarda shunday qarshi usulni qo'llash kerakki, bu savollarni ko'paytirmasdan, javoblarni oydinlashtirishga imkon bersin. "Bu usul muhim masalalarda doimo (qarama-qarshi ilohiy qarashlar o'rtasida) oraliq yo'lini tanlashni hamda turli da'volar (vahiy va aql, Alloh va inson, Alloh va olam) o'rtasida mantiqiy mutanosiblik mavjud bo'lishini taqozo etadi"[46]. Biroq Abu Mansur Moturidiyga zamondosh boshqa olimlar ham, uning ta'limoti ahamiyatidan al-Ash'ariyning ta'limotidan kam bo'lmasada, afsuski, unga deyarli e'tibor bermaganlar. Shu bois ha, moturidiya dastlab hududiy jihatdan faqat Movarounnahrda, asosan, Samarqandda tarqalgan. Uning ta'limotining dunyo miqiyosida, ayniqsa, musulmon olamida keng ko'lamda tarqalishida uning shogirdlari va izdoshlarining hissasi katta bo'ldi.

Moturidiya maktabiga qarshi chiqqan maktab ash'ariya maktabi bo'lib, uning asoschisi Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariy bo'lib, u ko'p yillar mo'taziliylar vakili bo'lgan va keyinchalik mo'taziliylardan ajralib chiqadi. "Shu bois uning g'oyalarida tabiiyki aql kerakli mavqe egallamay qo'ydi. Qur'on va hadisdan olingan narsalar qarshisida aql

so'nadi. Ammo, Ash'ariyning Qur'on va hadisni zohiriy idrok etuvchilar qatoriga butunlay qo'shib qo'yish va uni batamom aql va aqliy mushohadalar dushmani deb aytish mumkin emas. U Qur'on va "sunna" matnlaridan olingan misollarni isbotlash uchun aqliy-mantiqiy mushohadalardan ustalik bilan foydalanishga intilgan"[42]. U sof islom aqidasi bilan saqlanib qolishida hamda turli aqidaviy botil ta'limotlarning yo'q bo'lib ketishidagi xizmatlari nihoyatda katta bo'lgan[47]. Imom Ash'ariy ham musulmonlarning aqidasi bilan musaffolash uchun butun vujudlari bilan harakat qilib, "Islom bayrog'i unvoniga musharraf bo'lganlar"[48]. "...Ash'ariy ba'zan uning dalil va isbotlarini johilona qabul qilmaydigan zohirbin shariat ahli bilan to'qnashib qolardi. Ammo bu kelishmovchiliklar "Ash'ariy kalomining" fiqhning sunniy maktabi bilan birlashishiga to'sqinlik qilmas edi. "Kalomi Ash'ariy" kitobi Bag'dod, Nishopur, Balx madrasai nizomiya kabi obro'li o'quv yurtlarida rasmiy va e'tiborli darslik sifatida qo'llanib kelingan"[49]. Shunday qilib al-Ash'ariy o'z ta'limotini yaratadi. Bu ta'limotda Qur'on aqidalari va ularning aqliy talqini bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmasdan, aksincha, bir-birini to'ldiradi. Al-Ash'ariy ilohiy vahiyning nafaqat e'tiqod, balki aql vositasida ham anglash mumkinligi tan oladi. Shu bilan birga avval din aqidalarini qat'iy ravishda tan olingandan so'nggina ularni aqliy isbotini qabul qilish mumkin deb hisoblagan. Ya'ni din arkonlarini isbotlash uchun aqliy dalillardan foydalanishni tan oladi, lekin ilohiy vahiyning o'ziga faqat ishonchning o'zi kifoya, deb hisoblaydi. Ash'ariy ta'limotida biron bir e'tiqodiy masalani hal qilishda urg'u to'g'ridan-to'g'ri Qur'on va hadisga qaratilsa, moturidiya ta'limotida esa masalani hal qilishda mantiqqa ham ko'proq o'rin berilganini ko'rish mumkin. Bunday holat Imom al-Moturidiyning erkin muhitda yashagani, Imom al-Ash'ariyning esa Basrada Bag'dodga, ya'ni hanbaliya muhitiga ko'chib o'tgani ta'siri sifatida baholanadi[50]. Demak, al-Ash'ariy ta'limotida din arkonlariga bo'ysunish ularni ratsional asoslashdan ustun turadi. Al-Ash'ariy muammolarni faqat aynan shu asnodda falsafiy usullar bilan hal etadi va ularni mo'taziliylar bilan bo'lgan munozaralarda ishlatadi.

Islom madaniyatida ilmiy va intellektual faoliyatning rivojlanishiga bu ikki oqimning o'zaro baxslashuvlari va kurashlari kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kalom ilmi "islom ahliga tinchlik bermayotgan shubhalarni bartaraf etish maqsadida dinning asosiy arkonlarini nazariy jihatdan o'rganish va muvofiq talqinlar topish edi. Islom tarixida "ilmi avval" deb nomlangan ilmlarning paydo bo'lishi va uning tarjimalari vositasida kirib kelgan yunonlar, eroniylar, xindlarning ilmiy asarlari, ulardagi yangi g'oyalar bilan tanishish vaziyatini o'zgartirib yubordi... mazhabiy olishuvlar va shubhalar xiyla jiddiy tus ola boshladi va buni islomning ilk davridagi ibtidoiy, yuzaki yondashuvlar bilan hal qilib bo'lmasdi"[42]. Aynan shunday sharoitda islomning g'oyaviy doirasida kalom ilmining birinchi vakillari mo'taziliylar paydo bo'ladi va din masalalarini, yangi paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda aqlga suyanagan holda hal etishga urindilar. Lekin shu bilan birga Qur'onni zohiriy (yuzaki) idrok etuvchilar (zohirbinlar yoki an'anachilar) uchun bu jarayonlar katta muammolar keltirib chiqardi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Abu Mansur hazratlari yashagan davrda aqida ulamolari ikki asosiy manbaga suyanaganlar. Birinchisi – oyat va hadislar hamda sahoba va tobeinlarning ijmo' va ijtihodlari, ya'ni naqliy dalillar. Ikkinchisi – aqliy dalillar. Shayx Abu Mansur esa boshqalarga taqlid qilmasdan, naqliy dalillar bilan aqliy dalillarni uyg'unlashtirib, undan so'ng xulosa chiqarganlar. Aqliy dalil deganda falsafa, mantiq va tabiiy fanlar ko'zda tutiladi. Vaholanki, salaf ulomalarining ko'pchiligi ushbu dalillarni tan olmas, balki naqliy dalillarning o'zi bilan kifoyalanar edilar. Shayx Abu Mansur esa, bu ikkisidan hammunosib ravishda foydalanib, o'rtahollikni ixtiyor qilganlar. Darhaqiqat, naqliy dalillarni to'g'ri anglash uchun aqliy dalillarni puxta bilish shart bo'lgan. Aqlning ham imkoniyat darajasi cheklanganini e'tiborga olib, Abu Mansur hazratlari insoniy aql-tafakkur ko'p o'rinlarda ma'lum haqiqatlarni idrok etishga qodir emasligini uqtirib o'tadilar. Shu bilan birga, aqlning Alloh tomonidan ato etilgan eng ulug' ne'mat ekani, undan oqilon foydalanish zarurligini

ham ta'kidlab o'tadilar[51]. Shunday ekan, aql yordamida ayrim haqiqatlarni idrok etishga urinish islom falsafasining ratsional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sharqshunos olim F.Rouzentel islom falsafasidagi intellektual faoliyat mezonlarini quyidagilar bilan izohlanishini ta'kidlaydi:

- 1) islom an'analarini chuqur o'zlashtirish;
- 2) mistikaviy "yorishish", ilohiy nurni anglash;
- 3) mantiqiy fikr yuritish orqali tushunish;
- 4) har tomonlama (ensiklopedik) ma'lumotga ega bo'lish.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf fikricha, islom ummati Qur'on – o'qish ummati, ilm-ma'rifaat ummati o'laroq shakllana boshladi. Ana o'sha lahzadan boshlab, ilm talab qilish har bir erkagi va ayoliga farz bo'lgan ummat faoliyat ko'rsata boshladi[52]. Islom kishilarni ilmga chaqirish bilan kifoyalaniq qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asoslarini ham kishilarga ko'rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo'ladi:

1. Islom dalil va hujjat dinidir. Ya'ni ilm biror narsani hujjat va aniq dalil bilan bog'lanmaguncha, uni haqiqat deya tan olmaydi. Qur'on ham musulmonlarga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi.

2. Islom aniqlik dini, gumon dini emas. Ya'ni ilm doimo mavhum narsani aniq deb aytishdan qaytaradi. Gumonni rost deyish to'g'ri emas. Bir masala to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilish uchun uning hujjatiga, hujjatining kuchiga qaraladi, agar hujjati kuchli bo'lsa, masala haqiqat, hujjati kuchli bo'lmasa, masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur'on ta'limotlariga ham to'g'ri keladi. Qur'on gumon va xayoliy narsalardan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Chunki bunday narsalar odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtirib, e'tiqodini buzadi.

3. Islom taqlidning dushmanidir. Ya'ni ilm bir narsaga ishonch hosil qilmay turib, dalillarni bilmay turib, taqlid qilishdan qaytaradi. Bu borada hozirgi zamon ilmi eski ilmga to'g'ri kelmaydi, chunki qadimda, xususan o'rta asrlarda yevropaliklar biror narsaning to'g'ri yoki noto'g'riligini mashhur kishilardan ba'zilarining fikriga qarab baho berar edilar. Misol uchun, Arastudan chiqqan har bir fikr to'g'ri bo'ladi, undan xato fikr chiqishi mumkin emas, degan fikrga o'xshash. Ilm ko'r-ko'rona taqliddan qaytarishda Qur'on bilan muvofiqdir. Qur'oni karimda bir fikrga yopishib olib, "Bu ishni ota-bobomiz qilgan", deb, o'zlari aql ishlatmay yurganlar tanqid qilingan.

Ilm va amal muammosi, ilmga bo'lgan qunt-matonat, ilm bilan amaliyotning bir-biriga bog'liqligi o'rta asr islom sivilizatsiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan.

CONCLUSION

1. Falsafa ilmi sof ilmiy-intellektual faoliyat bo'lgani uchun dastlab islom dini tomonidan inkor qilingan bo'lsada, keyinchalik aqliy va mantiqiy muhshohadakorlikning o'sishi, ilmiy baxslarning rivojlanib borishi bilan falsafa ilmiga ehtiyoj yuzaga keldi. Bundan o'rta asrlar islom uyg'onish davrining yuzaga kelishini islom ta'limoti bilan falsafaning sintezlashuvi xosilasi ekanligi kelib chiqadi.

2. O'rta asrlar islom madaniy-ma'rifiy uyg'onishi davrida metafizika (ilk, boshlang'ich asos va uning ko'p dunyolarga munosabati, mavjudlik-nomavjudlik moduslari va ular o'rtasidagi munosabat, sabablilik), bilish nazariyasi (bilish shakllari, hissiy, aqliy va intuitiv bilish), inson haqidagi ta'limot (inson harakat va bilish qobiliyatiga ega bo'lgan mavjudot sifatida, insonning dunyo va ilk negizga (boshlang'ich asosga) amaliy-bilish tarzidagi munosabati) kabi ilmlarning rivojlanishi va bu ilmlar asosida ilmiy munozaralar muhitining shakllanishi iasosida ijtimoiy dunyoqarash ham o'zgarib borganligini ko'rish mumkin.

3. Islom sivilizatsiyasining g'oyaviy-tafakkuriy taraqqiyoti bir-biri bilan muqobil bo'lgan uchta muhim oqimlar – shariat, tasavvuf va ratsionalizm ta'sirida rivojlanib borganligi va ularning o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi, bir-birini to'ldirishi islomda intellektual faoliyatga munosabat rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqadi.

4. Islom falsafasining epistemologik mohiyati uning ishonch asosidagi ilmiy, aqliy va tafakkuriy plyuralizmi o'zaro baxs-munozaralar muhitida ekanligini ko'rish mumkin. Islom ta'limotlarida inson aqli va tafakkuri juda qadrlangan va uning imkoniyatlari, Allohni anglashdagi roli yuqori baholangan. Shu bois ham islom falsafasi, islom madaniyati o'zining yuksak rivojlanish cho'qqisiga chiqqan.

5. Islom falsafasidagi intellektual faoliyatga ijobiy munosabat rivojlanishida “ilm” va “ma'rifat” tushunchalarining muhokamasi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mutafakkirlar ilohiy bilimga nisbatan “ilm” tushunchasini, insoniy bilimga nisbatan “ma'rifat” tushunchasini ishlatishganini bilish mumkin. Shu bois ilohiy bilimga nisbatan “ilm” tushunchasini, insoniy bilimga nisbatan esa “ma'rifat” tushunchasini ishlatish to'g'ri bo'lishi kelib chiqadi.

6. Islom falsafasiga oid aksariyat tadqiqotlarda naqliy va g'ayri naqliy bilimlarning o'rniga birdek, teng e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham ularning g'oya va ta'limotlarida Alloh o'z payg'ambarlarini bu masalalarda haq so'zni yetkazish maqsadida yuborgan, degan g'oya ustuvorlik qiladi va bu qarash bilan g'arb epistemologiyasidan islom epistemologiyasining farqini ko'rsatadi.

7. Islom falsafasining rivoji natajasida ba'zi xulosalar shakllanadi. Unga ko'ra: xudo islom falsafasi nuqtai nazaridan barcha mavjud narsalarning harakatlantiruvchi va doimo o'zgartiruvchi oliy kuchdir. Ammo, yaratgan narsalarini bilish bandaning vazifasidir; xudo borliqni birinchi asoschisi, ya'ni uning yaratgan va harakatga keltirgan, keyinchalik esa uning harakatlari va o'zgarishlariga aralashmaydi. Koinotni sababchisi va uni harakatlantiruvchi asos tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Ya'ni, deistik qarashlar vujudga kela boshladi.

8. Musulmon madaniyatida shakllangan fan amaliyot bilan bog'liq edi. Bir tomondan, fan bevosita amaliy hayotdan ajralib chiqqan nazariy tizim sifatida o'z mazmuni va yo'nalishiga ega edi. Bu holatda fan o'z tizimi ichida bilimni tashkil etishga asosiy diqqatini qaratib, amaliy asosdan uzilib qolishi va quruq mushohadaning o'ziga aylanib qolishi xavfi bor edi, ya'ni ishonchlilik mavqei yo'qotishi mumkin edi. Shuning uchun fan o'z diqqatini endi amaliyotga, u bilan ongli ravishda o'zaro munosabat qurishga qaratgandi.

Adabiyotlar

1. <https://www.postgrad.com/university-of-birmingham-school-of-philosophy-theology-and-religion-islamic-studies>.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. – Б.35.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2017. – Б.253.
4. The Cambridge history of Arabic Literature, Religion, Learning and Science in the Abbacid Period. Cambridge, 1990.
5. Encyclopedia of the History of Arabic Science / Ed. R.Rushdi. London, 1996.
6. Suter H. Die Mathematiker und Astronomen der Araber und ihre Werke, Leipzig, 1900.
7. Renaud H.P.J. Additions et corrections a Suter “Die Mathematiker und Astronomen der Araber und ihre Werke” // TSIS. 1932, 18.
8. Krause M. Stambuler handschriften der Islamischer Mathematiker. Berlin, 1936.
9. Мец А. Мусульманский ренессанс. –Москва.: Наука. 1973.
10. Грбнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерки истории (600-1258). –Москва. 1986.
11. G.E. von Grunebaum. Modern Islam: Search for Cultural Identity. Berkely and Los Angeles, 1962.
12. G.E. von Grunebaum. Unity and Variety in Muslim Civilization. Chicago, 1955.
13. Sarton G. Introduction to the History of Science. Vol. I-III. Baltimore, 1927.
14. Meyerhof M. Science and Medicine/The legacy of Islam. Edited by Thomas Arnold and Alfred Guillaume, Oxford, 1931. –P. 311-356
15. Donald R. Hill. Science and technology in ninth – centure Baghdad// Science in Western and Eastern Civilization in Corolingian Times, Birkhaser Merlag Basel, 1992. –P. 485-502
16. Наллино Р. Илм а-фалак ва тарихи инд ал-араб фи-л-курун ал-вуста. Рума. 1911.
17. Имом Аҳмад ибн Қудом Мақсудий. Минхожул қосидин мухтасари: Саодат изловчиларга қўлланма. Тарж. Абдулхамид муҳаммад турсун. Масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. –Тошкент.: “Movarounnahr”, 2014. –Б. 468
18. Заҳабий, Имом Абу Абдуллоҳ Шамсиддин Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Усмон. Машхур даҳолар сийрати. –Тошкент.: Шарқ. 2015. –Б. 480.
19. Ҳоний ал-Ҳаж. Солиҳлар гулшани. Тарж: Зайриев Абдулхамид, Гиёсиддин Ҳабибуллоҳ. –Тошкент.: “Nilol-Nashr”. 2021. –Б. 432.
20. Саржоний, Доктор Роғиб. Ислому олам. –Тошкент.: Имом Бухорий халқаро маркази. 2018. –Б. 144.
21. Мовардий, Абул Ҳасан. Дунё тва дин одоби. –Тошкент.: “Nilol-Nashr”, 2017. –Б. 456.
22. Жўшон, Маҳмуд Асъад. Пайғамбар алайҳиссалом меросхўрлари. –Тошкент.: Ғофур Ғулом номидаги НМИУ, 2018.
23. Жўшон, Маҳмуд Асъад. Ислому ахлоқ. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2019.
24. Кўнрапа, Муҳаммад Зако. Муҳаммад ва ислому тарихи. / Масъул муҳаррир Шайх Абдулазиз Мансур. –Тошкент.: Шарқ, 2017. –Б. 386.
25. Абдурахмон Рафъат Пошо. Тобъинлар ҳаёти. (Нашрга тайёрловчилар Бобомурод Эрали, Баҳодир Карим) –Тошкент.: Шарқ. 2018. –Б. 384.

26. Шайх Муҳаммад Мутававали Шаъровий. Аллохнинг борлигига ақлий далиллар. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти. 2021. –Б. 208.
27. Эшбек, Йўлдош. Буюк Имом Абу Ҳанифа. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази нашриёти. 2021. –Б. 328.
28. Имом Зарнужий. Илм олиш сирлари. Тарж. З.Шарипов –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. –Б. 144.
29. Жиход Ат-Турбоний. Ислом умматининг 100 буюк шахси. Тарж: Шокир Долимов, Хурсанд Аҳмедов. Istanbul.: Furkan. 2020. –Б. 680.
30. Авлиёлар султони. Масъул муҳаррир. Нормурод нарзуллаев. –Тошкент.: Book Media Nashrgo 2019. –Б 304.
31. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. –Тошкент.: “HILOL-NASHR” нашриёти. 2019. –Б. 440.
32. Илмдан бошқа нажот йўқ. А.Ф.Абдуллаев. –Тошкент.: Тошкент ислом университети, 2017. –Б. 8.
33. Имом Аҳмад ибн Қудома Максудий. Минҳожул қосидин мухтасари: Саодат изловчиларга қўлланма. Тарж: Абдулҳамид Муҳаммад Турсун. –Тошкент.: Movarounnahr. 2014.-Б. 15.
34. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе.- Москва.: Наука, 1978.-Б.40.
35. Самарқандий, Абу Лайс. Танбеҳул ғофилин. Тарж. Д. Қўшоқов. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2020. –Б. 367.
36. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. –Тошкент.: “Hilol-Nashr” нашриёти. 2016. –Б.35.
37. Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан. –Тошкент.: Минҳож, 2003. –Б.58.
38. Ҳожи Аҳмадҷон Бобомурод. Соф исломий ақида: исломий мафкура. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 2019. -Б. 9.
39. Сайидахмедова А.С. Ислом фалсафасида гносеологик масалалар талқини (калом илми вакилларининг қарашлари асосида). Ф.ф.н. ... дисс. автореф.- Тошкент.: Тошкент ислом университети, 2009. –Б. 18.
40. Фитрат А. Нажот йўли.- Тошкент.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2001.-Б.46-48.
41. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). Тошкент.: “Akademnashr” 2020. -Б. 132.
42. Хотамий Сайид Муҳаммад. Ислом тафаккури тарихидан.- Тошкент.: Минҳож. 2003.-Б. 45-46, 48, 50.
43. Ислом энциклопедияси. Таҳрир қилган: Зухриддин Ҳусниддинов. –Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН. 2004. -Б. 134.
44. Усманов М.А. Распространение ислама и его роль в истории Средней Азии // Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в Средней Азии.- Ташкент.: Фан, 1991.-С.24.
45. Зиёдов Ш.Ю. Абу Мансур ал-Мотуридий калом таълимотининг шарқ фалсафаси ривожига қўшган ҳиссаси // Ўзбекистоннинг ислом цивилизatsияси ривожига қўшган ҳиссаси.- Тошкент-Самарқанд, 2007.- Б.203.
46. Рудолф У. Ал-Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти.- Тошкент. 2002.-Б.175.
47. Оқилов С. Мотуридия ва Ашъария таълимотлари тарихи. –Тошкент.: Movarounnahr, 2015. –Б. 49.

48. Ҳожи Аҳмаджон Бобомурод. Соф исломий ақида. –Самарқанд.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 2019. –Б. 18.
49. Хотамий С.М. Ислом тафаккури тарихидан.- Тошкент.: Минҳож. 2003. –Б.51.
50. Оқилов С. Мотуридия ва Ашъария таълимотлари тарихи. –Тошкент.: Моварауннаҳр, 2015. –Б. 88.
51. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. –Тошкент.: Моварауннаҳр. 2017. –Б.7.
52. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. –Тошкент.: “HILOL-NASHR” нашриёти. 2019. –Б. 68.